

resurs bilan cheklanib qolmasdan, ularning sonini ko'paytirib keng foydalanuvchilar auditoriyasini jalb qilishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun zamonaviy innovatsion yechimlar imkon qadar tezroq va intensiv usulda joriy etilishimiz zarur. Raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimi islohotlari, davlat-xususiy hamkorlikning kuchayishi bu jarayonda muhim omillar sifatida xizmat qiladi. Moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi aholi turmush darajasining yuksalishi, tadbirkorlik muhitining rivojlanishi, umuman iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga va eng asosiysi, yurtimizni rivojlangan davlatlar safiga qo'shilishida muhim kalit bo'lib xizmat qiladi.

MOLIYAVIY HUQUQLARNI TA'MINLASHDA JAMIYATNING ROLINI KUCHAYTIRISH

Toyirov Shohboz Ziyodullo o'g'li

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
assistenti*

Jo'rayeva Parizod Ravshan qizi

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning moliyaviy huquqlarni ta'minlashdagi roli o'rganiladi. Moliyaviy huquqlarni himoya qilish va bu huquqlarga asoslangan moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishni ta'minlash jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhimdir. Tadqiqotda fuqarolik jamiyati, davlat va moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda jamiyatning ishtiroki yoritilgan. Statistik ma'lumotlar va amaliy misollar orqali moliyaviy huquqlarni ta'minlashda samarali choralar va yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy huquqlar, jamiyat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy tenglik, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xizmatlar, moliyaviy tizim, bank xizmatlari, kredit, investitsiya.

Аннотация: В данной статье исследуется роль общества в обеспечении финансовых прав. Защита финансовых прав и обеспечение доступа к финансовым возможностям, основанным на этих правах, имеет важное значение для всех слоев общества. В исследовании освещено сотрудничество между гражданским обществом, государством и финансовыми институтами, а также участие общества в повышении финансовой грамотности населения. Через статистические данные и практические примеры рассматриваются эффективные меры и подходы к обеспечению финансовых прав.

Ключевые слова: Финансовые права, общество, гражданское общество, социальное равенство, финансовая грамотность, финансовые услуги, финансовая система, банковские услуги, кредиты, инвестиции.

Abstract: This article explores the role of society in ensuring financial rights. Protecting financial rights and ensuring access to financial opportunities based on these rights are crucial for all layers of society. The study highlights the collaboration between civil society, the state, and financial institutions, as well as the participation of society in improving financial literacy. Effective measures and approaches to ensuring financial rights are discussed through statistical data and practical examples.

Keywords: Financial rights, society, civil society, social equality, financial literacy, financial services, financial system, banking services, credit, investment.

Kirish.

Moliyaviy huquqlarni ta'minlash – bu fuqarolarning o'z moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, ularga tegishli huquqlarni himoya qilish va moliyaviy tizimlar bilan aloqalarida adolatni ta'minlash jarayonidir. Biroq, moliyaviy huquqlarni amalga oshirish ko'plab omillarga, jumladan, jamiyatning ma'lumotli bo'lishi, huquqiy himoya, davlat siyosati va moliyaviy institutlarning o'zaro hamkorligiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan 2021 yilda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, mamlakatda aholining faqat 38% moliyaviy savodxonlikka ega, bu esa aholining katta qismining moliyaviy huquqlaridan samarali foydalanishiga to'sqinlik qiladi. Moliyaviy huquqlarni ta'minlashda jamiyatning roli katta ahamiyatga ega. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan olib borilgan so'rovlar natijasida, fuqarolarni moliyaviy huquqlar haqida ma'lumot berish, ularni huquqiy va moliyaviy savodxonlikka o'rgatish, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni oshirishga yordam beradi. 2022-yilda BMT tomonidan e'lon qilingan hisobotda, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy huquqlarga oid bilimlar darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlarda iqtisodiy taraqqiyotning tezroq amalga oshishi qayd etilgan. O'zbekistonning hukumat siyosati va jamiyatning faolligi bu jarayonda muhim omil hisoblanadi [1] .

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.06.2020-yildagi PF-6012-son Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida qaroriga ko'ra jamiyatda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat hissining shakllanishi, xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar tavsiyalarining to'liq bajarilishi uchun sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari xodimlarining inson huquqlari bo'yicha malakasini oshirish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish zarur.[2]

Shuningdek, Moliyaviy huquqlarni ta'minlashda jamiyatning roli, ularning iqtisodiy faoliyatda to'liq ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtada, moliyaviy erkinlikning asosiy qismlaridan biri sifatida, ijtimoiy adolatni ta'minlashda huquqiy tizimning roli alohida ahamiyat kasb etadi. I.Tursunov [3] tomonidan olib borilgan tadqiqotda, huquqiy tizimning moliyaviy huquqlarni ta'minlashdagi rolini va fuqarolarning huquqlari to'g'risidagi bilimlarni oshirishning jamiyatdagi iqtisodiy islohotlarga ta'sirini ko'rsatadi. A.Xaydarov [4]

tomonidan olib borilgan tadqiqotda, fuqarolik jamiyatining roli va uning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishdagi o'rni ko'rib chiqilgan. Xaydarovning fikricha, fuqarolik jamiyatining faolligi va jamiyatda moliyaviy huquqlarni himoya qilishdagi roli, fuqarolarni iqtisodiy xavf-xatarlardan himoya qilish va ularning huquqlarini kafolatlashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi moliyaviy huquqlarni ta'minlashda jamiyatning roli va uning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini o'rganish uchun aniq statistik usullarga asoslanadi. Tadqiqotda asosiy metodlar va yondashuvlar uchun ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, mutaxassislar bilan intervyular, shuningdek, davrlar bo'yicha solishtirma tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillar uchun rasmiy statistik manbalar hamda so'rovnoma natijalaridan foydalanildi.

Tahlil va Natijalar.

Moliyaviy savodxonlik darajasi jamiyatda moliyaviy huquqlarni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi 2018 yilda 40% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 60% ga oshgan.

Milliy moliyaviy savodxonlik so'rovi (2022) ma'lumotlariga ko'ra, aholi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan bilimni oshirishda yuqori muvaffaqiyatlarga erishdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston aholisi moliyaviy huquqlarni bilish va sug'urta xizmatlari bilan tanishish bo'yicha ancha yuqori baholandi:

2018 yilda O'zbekiston aholisi orasida moliyaviy savodxonlik darajasi 40% bo'lsa, 2022 yilga kelib 60% ga yetdi. Bundan kelib chiqadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi oshishi, fuqarolarning moliyaviy huquqlarni bilish darajasini va sug'urta bozoridagi ishtirokini oshirishga yordam beradi. Jamiyatdagi fuqarolar o'rtasida moliyaviy huquqlarni bilish darajasi, hukumat va sug'urta kompaniyalarining ta'lim va xabardorlikni oshirishga qaratilgan siyosatlari bilan bevosita bog'liq. So'rovnoma natijalariga ko'ra, O'zbekistonda moliyaviy huquqlarni bilish darajasi 2019 yildan buyon doimiy ravishda oshib bormoqda.

So'rovnoma natijalari bo'yicha, fuqarolar moliyaviy huquqlarga ega bo'lish va ularni amalga oshirish borasida muhim bilimlarga ega ekanliklarini tasdiqlashgan:

2022 yil so'rovnomasi natijalariga ko'ra, aholining 70% moliyaviy huquqlarini bilishi va ularni ta'minlash bo'yicha muammolarni tushunishi ko'rsatilgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtda moliyaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish muammosi – O'zbekiston davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida dolzarbligi bilan ajralib turadi. Moliyaviy huquqlarni ta'minlashda jamiyat rolini kuchaytirish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Moliyaviy savodxonlikni oshirish

2. Shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash
3. Huquqiy baza va qonunchilikni takomillashtirish
4. Aholining moliyaviy tizimga ishonchini oshirish
5. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish

Davlat, fuqorolik jamiyati institutlari va xususiy sektor o'zaro hamkorlikda ishlashi natijasida aholining moliyaviy tizimga bo'lgan ishonchi oshadi. Shu sababli, moliyaviy huquqlarni himaya qilish bo'yicha kompleks yondoshuvni ishlab chiqish va uni amalga oshirish jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 29-dekabr 2022-yildagi 2816-IV-son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22-iyun 2020-yildagi PF-6012-son
3. I.Tursunov. (2022). Moliyaviy savodxonlik va uning ahamiyati: muammolar va yechimlar. <https://www.spot.uz/oz/2022/07/24/financial-literacy/>
4. Хайдаров, А., & Азимов, А. (2024). ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ В СОЦИАЛЬНОЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ МАХАЛЛЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономическое развитие и анализ, 2(10), 268–274. inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/59816.

MAMLAKATIMIZDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA ROSSIYA FEDERATSIYASINING TAJRIBASI

Shamansurova Zilola

*TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar"
kafedrası PhD, professori*

Bugungi global iqtisodiyotda moliyaviy savodxonlik jamiyatning har bir a'zosi uchun muhim hisoblanadi. Moliya va iqtisodiyotga oid bilimlarning yetishmasligi ko'plab mamlakatlarda aholining moliyaviy barqarorligini xavf ostiga qo'yadi. Shuning uchun ham maktablarda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish dolzarb masalalardan biri sifatida yuzaga chiqmoqda. Yetakchi mamlakatlar tajribasi bu borada O'zbekiston uchun qiymatli namuna bo'lishi mumkin.

Maktab o'quvchilari doirasida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda Rossiya Federatsiyasi ta'lim tajribasini o'rganish uchun bir qancha sabablar mavjud. Rossiyada maktab ta'limida o'quvchilarga sifatli moliyaviy ta'lim berish maqsadida ishlab chiqilgan ko'plab interaktiv o'yinlar Rossiya Federatsiyasi xalq ta'lim vazirligi, Rossiya Markaziy Banki va ko'plab moliya institutlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo'lib, maktablarda o'qituvchilar tomonidan dars jarayonlarida faol foydalanib kelinmoqda. O'quvchilarni yoshiga, bilim darajasiga,